

PEDAGOGIK JAMOADA SOG‘LOM MA’NAVY-PSIXOLOGIK MUHITNI SHAKLLANTIRISHDA MULOQOT MADANIYATI VA TANQIDIY FIKRLASHNING AHAMIYATI

Karaboyeva Maxliyo Kodirjonovna,
Qori Niyoziy nomidagi TPMI doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada pedagogik jamoada sog‘lom ma‘naviy-psixologik muhitni shakllantirishning muhim omillari sifatida muloqot madaniyati, kommunikativ kompetensiya, ma‘naviy qadriyatlar va tanqidiy fikrlashning ahamiyati yoritilgan. Xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari asosida pedagoglarning kasbiy faoliyatida tanqidiy tafakkur, emotsional intellekt hamda samarali kommunikatsiyaning o‘rni tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: pedagogik jamoa, ma‘naviy-psixologik muhit, kommunikativ kompetensiya, muloqot madaniyati, tanqidiy fikrlash, emotsional intellekt, ma‘naviyat, kasbiy munosabatlar.

Аннотация. В данной статье рассматриваются такие важные факторы формирования здоровой духовно-психологической среды в педагогическом коллективе, как культура общения, коммуникативная компетентность, духовные ценности и критическое мышление. На основе научных взглядов зарубежных и отечественных учёных анализируется роль критического мышления, эмоционального интеллекта и эффективной коммуникации в профессиональной деятельности педагогов.

Ключевые слова: педагогический коллектив, духовно-психологическая среда, коммуникативная компетентность, культура общения, критическое мышление, эмоциональный интеллект, духовность, профессиональные отношения.

Abstract. This article highlights the importance of communication culture, communicative competence, spiritual values, and critical thinking as key factors in forming a healthy spiritual and psychological environment within a pedagogical team. Based on the scientific views of foreign and local scholars, the role of critical thinking, emotional intelligence, and effective communication in teachers' professional activities is analyzed.

Keywords: pedagogical team, spiritual and psychological environment, communicative competence, communication culture, critical thinking, emotional intelligence, spirituality, professional relations.

Kirish. Pedagogik jamoada sog‘lom ma‘naviy-psixologik muhitni shakllantirish va saqlab turishda tanqidiy fikrlashning rivojlanganligi muhim omillardan biri hisoblanadi. Tanqidiy fikrlash nafaqat shaxsning intellektual qobiliyatlarini namoyon etuvchi vosita, balki uning ma‘naviy pozitsiyasi, axloqiy mas‘uliyati va kasbiy madaniyatini belgilovchi omil sifatida ham namoyon bo‘ladi. Chunki pedagogik faoliyat jarayonida o‘qituvchi turli axborotlar, fikrlar va qarashlar bilan muntazam to‘qnash keladi. Ularning haqqoniyligi va ishonchliligini baholash, dalillarni tahlil qilish hamda asoslangan xulosalar chiqarish pedagogning tanqidiy tafakkur darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Zamonaviy pedagogika va psixologiya fanlarida tanqidiy fikrlash reflektiv tafakkurning eng yuqori ko‘rinishlaridan biri sifatida talqin qilinadi.

Adabiyotlar tahlili. Mazkur mavzuga oid ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, pedagogik jamoada sog‘lom ma‘naviy-psixologik muhitni shakllantirishda tanqidiy fikrlash, muloqot madaniyati va emotsional intellekt muhim o‘rin tutadi. J. Dewey, R.

Ennis, R. Paul va L. Elder asarlarida tanqidiy fikrlash reflektiv va mantiqiy tahlilga asoslangan tafakkur sifatida yoritiladi.

D. Goleman emotsional intellektni kasbiy muvaffaqiyat va ijtimoiy munosabatlar samaradorligining muhim omili sifatida ko'rsatadi, A. Mehrabian esa muloqotda noverbal vositalarning psixologik muhitga ta'sirini asoslaydi. Sharq mutafakkirlari Farobiy va Ibn Sino asarlarida esa axloqiy kamolot va aqliy yetuklik uyg'unligi g'oyasi ilgari suriladi.

O'zbek olimlari S.S. G'ulomov va B. Nazarov tadqiqotlarida pedagogik faoliyatda tanqidiy fikrlash va kommunikativ madaniyatni rivojlantirish zarurligi ta'kidlanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda pedagogik jamoada sog'lom ma'naviy-psixologik muhitni shakllantirishda muloqot madaniyati va tanqidiy fikrlashning rolini o'rganish uchun nazariy va empirik yondashuvlar qo'llanildi. Analiz va sintez, qiyosiy tahlil hamda umumlashtirish metodlaridan foydalanildi.

Empirik bosqichda kuzatish va suhbat (intervyu) usullari orqali pedagoglar o'rtasidagi kommunikativ munosabatlar o'rganildi. Olingan natijalar sifat jihatdan tahlil qilinib, umumiy xulosalar shakllantirildi.

Tahlillar va natijalar. Refleksiv fikrlash shaxsning o'z faoliyati, qarorlari va xatti-harakatlarini tahlil qilish, baholash hamda zarur hollarda ularga tuzatishlar kiritish qobiliyatini anglatadi. John Dewey ta'kidlaganidek, refleksiv fikrlash insonning har qanday muammo yoki vaziyatga nisbatan shubha bilan yondashishi, mavjud dalillarni tahlil qilishi va mantiqiy xulosa chiqarishiga asoslanadi. Mazkur yondashuv pedagogik jamoada yuzaga kelishi mumkin bo'lgan turli ziddiyatlar, noto'g'ri talqinlar va asossiz xulosalarning oldini olishda muhim metodologik asos vazifasini bajaradi. Pedagogik jamoalarda uchraydigan nizolar va kommunikativ to'siqlar ko'pincha axborotni bir tomonlama qabul qilish, subyektiv baholash yoki hissiyotlarga berilish natijasida yuzaga keladi.[1] Psixologiyada bunday holatlar kognitiv og'ishlar (cognitive biases) orqali izohlanadi. Xususan, tasdiqlovchi og'ish (confirmation bias) shaxsning o'z qarashlariga mos keluvchi axborotlarni qabul qilib, ularga zid bo'lgan ma'lumotlarni inkor etishga moyilligini bildiradi. Pedagogik jamoada mazkur holat hamkasblar faoliyatiga nisbatan noto'g'ri baholar berish, asossiz gumonlar paydo bo'lishi va o'zaro ishonchning susayishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli pedagoglarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish orqali bunday salbiy holatlarning oldini olish mumkin. Tanqidiy fikrlashning samarali rivojlanishi ma'naviy qadriyatlar bilan uzviy bog'liqdir. Chunki tanqidiy tafakkur faqat mantiqiy tahlil qilish bilan cheklanmay, balki rostgo'ylik, adolatparvarlik, xolislik va mas'uliyat kabi axloqiy fazilatlarini ham talab qiladi. Richard Paul va Linda Elder tanqidiy fikrlashning intellektual standartlari qatorida aniqlik, mantiqiylik, xolislik va chuqurlik kabi mezonlarni ko'rsatib o'tadilar. Ushbu sifatlar pedagogning kasbiy faoliyatida adolatli qarorlar qabul qilishi va hamkasblari bilan sog'lom munosabatlar o'rnatishiga xizmat qiladi. Shuningdek, tanqidiy fikrlash emotsional intellekt bilan ham chambarchas bog'liqdir. [2]


Daniel Goleman tomonidan ilgari surilgan emotsional intellekt nazariyasiga ko'ra, shaxsning o'z hissiyotlarini boshqara olishi, boshqalarning hissiy holatini anglay olishi va ijtimoiy munosabatlarni samarali tashkil etishi kasbiy muvaffaqiyatning muhim omillaridan biridir. Pedagogik jamoada emotsional intellekti rivojlangan mutaxassislar ziddiyatli vaziyatlarda hissiyotlarga berilmasdan, muammoning mohiyatini tahlil qilishga va konstruktiv yechim topishga intiladilar. Bu esa jamoada o'zaro hurmat, hamkorlik va psixologik xavfsizlik muhitining qaror topishiga xizmat qiladi. Ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tanqidiy fikrlash va ma'naviy qadriyatlar uyg'un rivojlangan pedagogik jamoalarda kasbiy hamkorlik darajasi yuqori bo'ladi, nizolar soni kamayadi va ta'lim sifatining oshishi kuzatiladi. Bunday jamoalarda pedagoglar o'z fikrlarini erkin bildirish, konstruktiv munozaralarda ishtirok etish va innovatsion g'oyalarni ilgari surish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Demak, pedagogik jamoada sog'lom ma'naviy muhitni shakllantirishda tanqidiy fikrlashni rivojlantirish, ma'naviy qadriyatlarni mustahkamlash hamda emotsional intellektni qo'llab-quvvatlash o'zaro bog'liq va bir-birini to'ldiruvchi jarayonlar hisoblanadi. Mazkur omillar pedagoglarning kasbiy faoliyatini takomillashtirish bilan bir qatorda, ta'lim muassasasining umumiy ijtimoiy-psixologik barqarorligini ta'minlashga ham xizmat qiladi. [3]

Amerikalik psixolog Albert Mehrabian insonlararo muloqotda noverbal vositalarning muhim o'rin tutishini ilmiy asoslab bergan. Uning tadqiqotlari pedagogik faoliyatda nafaqat nutq madaniyati, balki mimika, imo-ishoralar va hissiy holatlarning ham samarali kommunikatsiyani ta'minlashdagi rolini ko'rsatadi. Empatik va ongli muloqot pedagoglar o'rtasida psixologik barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Pedagogik jamoaning psixologik muhitini barqarorlashtirishda ma'naviy qadriyatlar muhim o'rin tutadi. Kasbiy faoliyat jarayonida yuzaga keladigan turli hissiy holatlarni boshqarish uchun pedagogning ma'naviy poydevori mustahkam bo'lishi zarur. Shaxsning o'z-o'zini nazorat qilishi, bag'rikengligi, mas'uliyati va axloqiy me'yorlarga amal qilishi jamoadagi ijobiy munosabatlarni rivojlantiradi. Pedagogik-psixologik adabiyotlarda ta'kidlanishicha, inson faoliyati avvalo "inson-inson" munosabatlari tizimida shakllanadi. O'zaro hurmat va hamkorlikka asoslangan munosabatlar pedagogning kasbiy rivojlanishi hamda jamoaning ma'naviy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Pedagogik jamoada sog'lom ma'naviy muhitning buzilishiga olib keluvchi omillardan biri axborotni tanqidiy tahlil qilmasdan qabul qilishdir. Tanqidiy fikrlash shaxsning axborotni tahlil qilish, baholash, solishtirish va asoslangan xulosa chiqarish qobiliyatini ifodalaydi. Tanqidiy fikrlashning falsafiy ildizlari qadimgi davrlarga borib taqaladi. Platon haqiqatga qarama-qarshi fikrlar to'qnashuvi orqali erishilishini ta'kidlagan bo'lsa, Aristotel mantiq va ilmiy tafakkur asoslarini yaratgan. Sharq mutafakkirlari Abu Nasr Farobiy, Abu Ali ibn Sino va Abu Rayhon Beruniy ham mantiqiy tahlil, dalillash va tajribaga asoslangan bilim olish g'oyalarini ilgari surganlar. XX asrda John Dewey tanqidiy fikrlash nazariyasini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Uning "How We Think" asarida

ilgari surilgan reflektiv fikrlash konsepsiyasi zamonaviy tanqidiy tafakkur nazariyasining poydevoriga aylandi. Keyinchalik Edward Glaser, Robert Ennis, Richard Paul va Linda Elder tomonidan ushbu nazariya yanada rivojlantirildi. Pedagoqlarda tanqidiy fikrlashning yetarli darajada rivojlanmaganligi g'iybat, asossiz ayblovlar, noto'g'ri xulosalar va jamoa ichidagi nizolarni keltirib chiqarishi mumkin. Psixologiyada bunday holatlar kognitiv og'ishlar bilan izohlanadi. Axborotni tekshirmasdan qabul qilish natijasida jamoada ishonchsizlik, norasmiy guruhlashuv va ixtiloflar yuzaga keladi. Shu bois pedagoqlarda axborotni tahlil qilish, dalillarni tekshirish, turli nuqtai nazarlarni solishtirish va mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirish zarur. Bu nafaqat kasbiy samaradorlikni oshiradi, balki jamoada sog'lom ma'naviy-psixologik muhitni ta'minlaydi.[7]

Pedagogik jamoada kasbiy-ma'naviy sog'lom muhitni tashkil etish texnologiyasi



Ushbu btexnologiyada pedagogik jamoada sog'lom ma'naviy-psixologik muhitni shakllantirishning asosiy omillari va ularning o'zaro bog'liqligini aks ettiradi. Modelning markazida pedagogik jamoada sog'lom ma'naviy-psixologik muhitni ta'minlash maqsadi turadi. Ushbu maqsadga erishishda tanqidiy fikrlash, muloqot madaniyati va ma'naviy qadriyatlar asosiy tarkibiy omillar sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa. Pedagogik jamoada sog'lom ma'naviy-psixologik muhitni shakllantirishda muloqot madaniyati, kommunikativ kompetensiya, ma'naviy qadriyatlar, tanqidiy fikrlash va emotsional intellekt muhim omillar hisoblanadi. Pedagoqlarning o'zaro hurmat, hamkorlik va mas'uliyat tamoyillariga asoslangan faoliyati jamoaning ma'naviy salohiyatini yuksaltiradi. Tanqidiy tafakkurning rivojlanganligi esa axborotni ongli qabul

qilish, nizolarni oldini olish va pedagogik jamoada sog‘lom ma‘naviy muhitni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Dewey J. “How We Think”. – New York: D.C. Heath and Company, 1910.
2. Mehrabian A. “Silent Messages”. – California: Wadsworth Publishing, 1971.
3. Goleman D. “Emotional Intelligence”. – New York: Bantam Books, 1995.
4. Ennis R.H. “Critical Thinking”. – New Jersey: Prentice Hall, 1996.
5. Paul R., Elder L. “The Miniature Guide to Critical Thinking”. – Foundation for Critical Thinking, 2019.
6. Farobiy A.N. “Fozil odamlar shahri”. – Toshkent: Yangi asr avlodi.
7. Ibn Sino. “Donishnoma”. – Toshkent: Fan.
8. G‘ulomov S.S. Ta’limda tanqidiy fikrlash masalalari bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar.
9. Nazarov B. Ta’lim jarayonida tanqidiy tafakkurni rivojlantirishning falsafiy-pedagogik asoslari.

